



Gavhar TILOVOVA,
Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, PhD
E-mail: gavhar.abdaxatovna@gmail.com

O'zMU professori, f.f.n Sh.Imyaminova taqrizi ostida

NOMINASIYA NAZARIYASI VA TABIIY OBYEKTLARNI NOMLASH MUAMMOSI

Annotatsiya

Mazkur maqolada nominasiya nazariyasining lingvistik asoslari tahlil qilinadi hamda tabiiy obyektlar, xususan daraxt va buta nomlari misolida nomlash mexanizmlarining amaliy ifodasi yoritiladi. Nominasiya tilning asosiy funksional mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilinib, u orqali obyektiv reallik elementlarining leksik birlik sifatida shakllanishi jarayoni izohlanadi. Tadqiqotda til belgisining ikki tomonli tabiati haqidagi Ferdinand de Saussure ta'limoti hamda tilning referent funksiyasiga oid Roman Jakobson qarashlariga tayanilgan holda nomlashning mazmun va ifoda birligi sifatidagi mohiyati so'zlanadi.

Kalit so'zlar: Nominatsiya, tabiiy obyektlar, daraxt va buta nomlari, shaffof va noshaffof motivatsiya.

NOMINATION THEORY AND THE PROBLEM OF NAMING NATURAL OBJECTS

Annotation

This article analyzes the linguistic foundations of the theory of nomination and highlights the practical expression of naming mechanisms on the example of natural objects, in particular, tree and shrub names. Nomination is interpreted as one of the main functional mechanisms of language, through which the process of formation of elements of objective reality as lexical units is explained. The study is based on Ferdinand de Saussure's doctrine of the two-sided nature of the linguistic sign and Roman Jakobson's views on the referential function of language, and the essence of naming as a unit of content and expression.

Key words: Nomination, natural objects, tree and shrub names, transparent and opaque motivation.

ТЕОРИЯ НОМИНАЦИИ И ПРОБЛЕМА НАИМЕНОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ ОБЪЕКТОВ

Аннотация

В данной статье анализируются лингвистические основы теории номинации и освещается практическое выражение механизмов именования на примере природных объектов, в частности, названий деревьев и кустарников. Номинация интерпретируется как один из основных функциональных механизмов языка, посредством которого объясняется процесс формирования элементов объективной реальности как лексических единиц. Исследование основано на доктрине Фердинанда де Соссюра о двусторонней природе языкового знака и взглядах Романа Якобсона на референциальную функцию языка и сущность именования как единицы содержания и выражения.

Ключевые слова: Номинация, природные объекты, названия деревьев и кустарников, прозрачная и непрозрачная мотивация.

Kirish. Nominasiya nazariyasi tilshunoslikning markaziy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u til birliklari orqali borliq obyektlari, hodisalari va tushunchalarini nomlash qonuniyatlarini o'rganadi. Nominasiya – bu faqatgina atamani belgilash emas, balki insonning kognitiv faoliyati, tafakkuri va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Lisoniy belgi muayyan obyektini ifoda etish bilan birga, uning inson ongida shakllangan konseptual modeliga ham tayanadi. Shu ma'noda, nomlash jarayoni semiotik, kognitiv va pragmatik omillarning o'zaro ta'siri natijasi hisoblanadi [2].

Nominasiya nazariyasida “birlamchi” va “ikkilamchi” nomlash tushunchalari farqlanadi. Birlamchi nomlashda obyekt bevosita idrok etilgan belgi asosida atalsa, ikkilamchi nomlashda metafora, metonimiya yoki semantik ko'chish orqali yangi ma'no hosil bo'ladi. Tabiiy obyektlar, xususan daraxt va buta nomlarida har ikki mexanizm ham faol ishtirok etadi. Masalan, tashqi belgi (rang, shakl, hid), geografik joylashuv, foydalilik darajasi yoki madaniy simbolika nom tanlashda motivasion asos bo'lishi mumkin.

Ushbu maqolada nominasiya nazariyasining nazariy asoslari va dendronimlar misolida uning amaliy ifodasi tahlil qilinadi. Xususan, daraxt va buta nomlarining shakllanish mexanizmlari, ularning semantik motivatsiyasi hamda kognitiv omillari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot natijalari tabiiy obyektlar nominatsiyasining til tizimidagi o'rni va uning

konseptuallashuv jarayonini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Lingvistika tarixida nominasiya muammosi til belgisi nazariyasi bilan chambarchas bog'liq holda o'rganilgan. Xususan, Ferdinand de Saussure tomonidan asoslangan til belgisining ikki tomonli tabiati – Ifoda (signifiant) va mazmun (signifié) birligi – nomlash jarayonining nazariy poydevorini tashkil etadi. Bu yondashuvga ko'ra, nominasiya mazmunni muayyan ifoda vositasi orqali belgilash va uni til tizimiga kiritish demakdir. Keyinchalik Roman Jakobson tilning referent (nominativ) funksiyasini alohida ta'kidlab, til orqali tashqi olam obyektlarini belgilash inson tafakkurida konseptual modellarni shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatgan. Demak, nomlash jarayoni semantik, kognitiv va pragmatik omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Nominasiya natijasida obyektiv reallik elementlari til tizimida leksik birlik sifatida mustahkamlanadi va ijtimoiy kommunikatsiya vositasiga aylanadi [11].

Lingvistikada nominasiya tushunchasi til belgisi nazariyasi bilan chambarchas bog'liq. Ferdinand de Saussure tomonidan ilk marotaba tizimli ravishda asoslangan til belgisi ikki tomonli birlik – ifoda tomoni (signifiant) va mazmun tomoni (signifié)dan iborat deb ta'riflanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, nominasiya – mazmunning ifoda vositasi orqali belgilash jarayonidir. Demak, nomlash faqat so'z

yaratish emas, balki ma'noni kognitiv qayta ishlash va konseptualashtirish natijasidir [12].

Tilning nominativ funksiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Roman Jakobson [7] nominativ (referent) funksiyani tilning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rsatadi. Bu funksiya orqali til tashqi olam obyektlarini belgilaydi va inson tafakkurida ularning konseptual modeli shakllanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda nominasiya jarayonini har tomonlama yoritish maqsadida kompleks yondashuv qo'llaniladi. Avvalo, tasviriy-tahliliy metod asosida daraxt va buta nomlarining leksik-semantik xususiyatlari o'rganiladi, ularning ma'no tuzilishi va nomlash motivlari aniqlanadi. Qiyosiy-tipologik metod orqali dendronimlarning shakllanishidagi umumiy va o'ziga xos belgilar solishtirma tahlil qilinadi. Etimologik tahlil yordamida nomlarning kelib chiqishi, birlamchi va ikkilamchi nomlash mexanizmlari (metafora, metonimiya, semantik ko'chish) izohlanadi. Shuningdek, kognitiv-semantik yondashuv asosida dendronimlarning inson tafakkuridagi konseptual modellari va motivasion omillari aniqlanadi. Tadqiqot jarayonida tahlil, sintez va umumlashtirish usullaridan foydalanilib, olingan natijalar tizimlashtiriladi va ilmiy xulosalar shakllantiriladi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy adabiyotlarda terminlar madaniyatning konseptual asosini tashkil etuvchi birliklar sifatida baholanadi. Nominasiya nazariyasi esa tildagi nomlash jarayonini obyektiv borliq, tafakkur va kommunikativ ehtiyojlar bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi.

Tabiiy obyektlarni nomlash muammosi, avvalo, inson va tabiat o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq. Tabiat elementlari (o'simlik, hayvon, suv havzalari, tog'lar) insoniyatning ilk tajribasini tashkil etgan. Shu bois ularning nomlari ko'p hollarda arxaik qatlama mansub bo'lib, etimologik jihatdan qadimiy semantik motivlarga ega. Biroq fan va texnika taraqqiyoti natijasida tabiiy obyektlarning ilmiy klassifikatsiyasi chuqurlashib, yangi terminlarga ehtiyoj tug'ildi. Bu holat xalq tilidagi an'anaviy nomlar bilan ilmiy terminlar o'rtasida muayyan tafovutlarni keltirib chiqardi.

Tabiiy obyektlarni nomlashda quyidagi asosiy muammolar kuzatiladi:

Motivasiyaning shaffofligi muammosi. Ayrim nomlar o'zining dastlabki belgi-motivasiyasini vaqt o'tishi bilan yo'qotadi. Bu holat etimologik tahlilni qiyinlashtiradi. Umuman motivasiya shaffofligi nima? Nominasiya nazariyasida motivasiya — bu nom tanlashga asos bo'lgan belgi (rang, shakl, funksiya, joylashuv va h.k.). Agar zamonaviy til sohiblari nom bilan belgi o'rtasidagi aloqani oson anglasa — shaffof motivasiya, anglay olmasa — noshaffof (yoki demotivlashgan) motivasiya deyiladi [1].

Rang asosida nemis tilida: die Rotbuche Rot (qizil) + Buche (buk). Yog'ochining qizg'ish rangi saqlanib turgani uchun ham motivasiya anglashiladi.

O'zbek tilida: Oq qayin - poyasining oqligi bilan bevosita bog'liq. Bu holatda nom va belgi o'rtasidagi aloqa hozirgi til sohibi uchun tushunarli ekanligini anglatadi.

Noshaffof (demotivlashgan) motivasiyada etimologik motivasiya yo'qolishi kuzatiladi. Masalan, nemis tilida die Linde so'zining qadimgi german ildizi lind- "yumshoq, egiluvchan" ma'nosini anglatgan. Daraxt yog'ochining yumshoqligi motivasiya bo'lgan. Lekin zamonaviy nemis tili sohiblari bu semantik bog'lanishni anglamaydilar. Demak, motivasiya tarixi saqlangan, ammo noshaffof. Motivasiya shaffofligining yo'qolishiga sabab bo'luvchi omillar sifatida "semantik evolyusiyani"ni keltirish mumkin, chunki bunda so'zning dastlabki ma'nosi passivlashadi. "Madaniy o'zgarish"da esa obyekt bilan bog'liq qadimgi ishonch va simbolika unutiladi.

Motivasiyaning shaffofligi tabiiy obyekt nomlarida vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchan xususiyat kasb etadi. Dastlab vizual yoki funksional belgiga asoslangan nomlar keyinchalik

leksiklashuv natijasida o'z semantik asosidan uzilishi mumkin. Masalan, ayrim o'zbek dendronimlarida ham etimologik belgi faol emas. Bu holat etimologik tahlilni murakkablashtiradi va nominasiya nazariyasida diaxronik yondashuv zarurligini ko'rsatadi [1].

Polisemiya va omonimiya. Bir xil nom turli hududlarda boshqa-boshqa obyektlarni anglatishi mumkin. Bu esa terminologik aniqlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda terminologik aniqlikning buzilishi sabablari ko'rib chiqiladi.

Terminning asosiy talablaridan biri - "bir ma'nolilik (monosemiya)"dir [1]. Agar bir dendronim turli hududlarda turli o'simlikni anglatasa, ilmiy kommunikatsiyada noaniqlik yuzaga keladi. Masalan: nemis tilida der Wacholder so'zi odatda, Juniperus turlarini anglatadi, ammo ayrim hududiy nutqlarda boshqa ignabargli butalarga nisbatan ham ishlatilishi mumkin.

O'zbek tilida "archa" so'zi adabiy tilda asosan Juniperus turlarini anglatadi, lekin ayrim hududlarda turli ignabargli daraxtlar umumiy nom bilan atalishi kuzatiladi. Bu albatta, botanik tasniflashda aniq turni belgilashni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, agar bir nom ikki turli obyektga anglatasa, tadqiqot natijalarida xatolik paydo bo'lishi mumkin va bu ilmiy kommunikatsiyada tushunmovchilikni keltirib chiqaradi. Masalan, nemis tilida die Pappel Populus turlarini anglatadi, ammo ayrim hollarda muayyan turga (masalan, qora terak) nisbatan ishlatilishi mumkin. Agar tur aniq ko'rsatilmasa, tadqiqot obyekti noaniq bo'lib qoladi.

Terminologik tizimda mahalliy taksonomiya (lotincha ilmiy nom) aniqlikni ta'minlaydi. Ammo mahalliy nomlar polisemik bo'lganda standartlashtirish qiyinlashtiradi [4], ya'ni standartlashtirish muammosi yuzaga keladi. Masalan, die Tanne, die Fichte so'zlari nemis tilida farqlanadi. Ammo ayrim tillarda (yoki nutq variantlarida) ignabargli daraxtlar umumiy nom bilan atalishi mumkin. Bu tarjima va klassifikatsiyada xatolik keltirib chiqaradi.

Dendronimlardagi polisemiya va omonimiya terminologik tizimning asosiy talablaridan bo'lgan aniqlik va bir ma'nolilik tamoyiliga zid keladi. Bu holat ilmiy kommunikatsiyada tushunmovchilik, tasnifiy noaniqlik, tarjima xatolari va amaliyotda noto'g'ri qarorlarga olib kelishi mumkin. Shu bois dendronimlarni standartlashtirishda lotincha taksonomik nomlarni majburiy ko'rsatish hamda lug'atlarda semantik differentsiyaning aniq belgilash muhimidir [1].

Mahalliy va ilmiy nom o'rtasidagi farq. Masalan, mahalliy nom bilan botanik klassifikatsiyadagi lotincha nom o'rtasida moslik har doim ham ta'minlanmaydi. Terminologik standartlash zarurati shu yerda namoyon bo'ladi [3]. Mahalliy nom va ilmiy nomning farqlari, bu nimani anglatadi? Nomlar mahalliy tilda shakllangan, ko'pincha vizual, funksiyaviy yoki madaniy motivlar asosida nomlangan bo'ladi. Ba'zan dialekt va hududiy farqlar katta bo'lsa, bir xil nom turli joylarda turli obyektlarni anglatishi mumkin.

Ilmiy nom (lotincha): har bir turni taksonomik jihatdan aniq belgilash bilan birga universal va barqaror, xalqaro hamkorlikda aniq identifikatsiyani ta'minlaydi hamda aslida nomenklatura qoidalariga muvofiq, har bir tur uchun yagona nom belgilangan.

Shu o'rinda mahalliy va ilmiy nomlar o'rtasidagi farqlarning salbiy va ijobiy ta'sirlariga to'xtalib o'tamiz. Agar lug'at yoki terminologik manba mahalliy nomlar asosida tuzilsa, ilmiy aniqlik kamayadi. Masalan, "archa" nomi ba'zi hududlarda Juniperus turini, ba'zida esa boshqa ignabargli butani anglatishi mumkin. Natijada ilmiy maqsadda ma'lumot noto'g'ri interpretatsiya qilinishi mumkin (botanika, ekologiya, o'rmonchilik).

Insonlar uchun vizual yoki funksional assosiasiya orqali nomlarni anglash oson. Terminologik standartlash zarurati bo'lganda, bu farqni bartaraf qilish uchun ilmiy va

ommaviy nomlarning muvozanatli foydalanishi zarur bo'ladi. Masalan, lug'at va ensiklopediyalarda har bir mahalliy nomga lotincha taksonomik identifikator qo'yish lozim, masalan: "archa" (*Juniperus sabina* L.). Ilmiy maqsadda yagona standartizatsiyaga erishishda xalqaro taksonomik qoidalar asosida turlarning nomini aniq belgilash talab etiladi. Bu standartlashtirish nafaqat fan va ta'limda, balki ekologiya, o'rmonchilik va resurslar monitoringida ham aniqlikni ta'minlaydi [3].

Ekstralingvistik omillar ta'siri. Geografik muhit, iqlim, etnomadaniy qadriyatlar tabiiy obyekt nomlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bir xil turli o'simlik turli tillarda turlicha motivasiya asosida nomlanishi mumkin. Masalan, tabiiy obyektlarning xos xususiyatlari ko'pincha geografik sharoit va iqlimga bog'liq. Shu bois, bir xil turli o'simlik turli hududlarda nomlanishda turlicha motivasiyaga ega bo'lishi mumkin. Masalan, qarag'aylar (*Pinus* spp.)

Nemis tilida die Kiefer ("qattiq va mustahkam") — tashqi belgisi va qurilishdagi qo'llanishi asosida nomlangan.

O'zbek tilida: "qoraqaragay" — poya va shoxlarning tashqi ko'rinishi va qishloq aholisi uchun foydaliligi asosida nomlangan.

Shuningdek, archa (*Juniperus* spp.) turlari: Turkistonda archa nomi, qadimdan mahalliy iqlim va cho'l sharoitiga moslashganligi bilan bog'liq. Yevropa yoki Sibirda die Wacholder — boshqa vizual yoki funksional belgilarga e'tibor qaratiladi. Bu yerda ko'rinadiki, geografik muhit nom motivasiyasini shakllantiradi: inson tabiat obyektining qaysi xususiyatiga e'tibor qaratishi iqlim va makon bilan bog'liq.

Etnomadaniy qadriyatlarga ko'ra, ba'zan tabiiy obyekt nomlari ko'pincha madaniy simbolika bilan ham bog'liq: Masalan, Yevropa xalqlarida die Trauerweide (weyping willow - yig'loqi tol) — g'am, arazlik va sirli hissiyotlarning metaforasi. O'zbek tilida "majnunol", qaysidir ma'noda Majnunga nisbatan sifat berilganligi anglashilib turiladi, ya'ni shoxlari pastga osilib turishi va inson empatiyasi bilan bog'liq. Bu holatda nomlanish emosional va madaniy motivasiya asosida yuzaga keladi. Shu bilan birga, bir xil turli madaniy muhitda turlicha atama olishi mumkin.

Tur	Hududi	mahalliy nomi	Ilmiy nomi	Motivasiya
Qarag'ay	Germaniya	die Kiefer	<i>Pinus sylvestris</i>	yog'och qattaligi, qurilishda qo'llanishi
Qorag'ay	O'zbekiston	Qoraqaragay	<i>Pinus sylvestris</i>	shox va poya shakli, mahalliy iqlimga moslashuv
Tol	Yevropa	die Trauerweide	<i>Salix babylonica</i>	shoxlar pastga osilishi g'am, metafora

Jadvaldan ko'rinadiki, bir xil tur turli geografik va madaniy muhitda turlicha motivasiya asosida nomlanishi mumkin, bu nominasiya nazariyasida ekstralingvistik omillar ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Ekstralingvistik omillar (geografiya, iqlim, etnomadaniy qadriyatlar) nomlash jarayonida asosiy rol o'ynaydi. Ular nom motivasiyasini shakllantiradi, uning shaffofligi va semantik yo'nalishini belgilaydi. Shu bois bir xil turli o'simlik turli til va madaniyatda turlicha nomlanishi tabiiy va kutilgan holatdir, va

bu terminologik standartlashtirish va lug'at tuzishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tabiiy obyektlar nominasiyasi til tizimida nafaqat leksik birliklarning shakllanish mexanizmini, balki inson va tabiat o'rtasidagi konseptual munosabatni ham aks ettiradi. Tadqiqot natijalari dendronimlarni tizimli o'rganish, ularni standartlashtirish hamda ko'p tilli terminologik lug'atlar yaratishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

- Danilenko V.P. Russkaya terminologiya: Opit lingvisticheskogo opisaniya. Moskva: Nauka. 1977, S. 45-47.
- Kolshanskiy G.V. Obyektivnaya kartina mira v poznanii i yazike. Moskva: Nauka. 1984, S. 72-73.
- Paluanova X. Terminologik nominasiyaning lingvistik asoslari. Toshkent: Fan. 2019, B. 26.
- Serebrennikov B.A. Rol chelovecheskogo faktora v yazike: Yazik i mishlenie. Moskva: Nauka. 1988, S. 142-145.
- Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002.
- Xismatova A. Sopostavitel'nyy analiz dendronimov v bashkirskom i nemeskom yazikax. Ufa: Bashkirskiy gosudarstvenniy universitet. 2016.
- Jakobson R. Selected writings, Vol. II: Word and language. The Hague, Netherlands: Mouton. 1971. pp. 67-70.
- Kolshanskiy G.V. Obyektivnaya kartina mira v poznanii i yazike. Moskva, Rossiya: Nauka. 1990. pp. 20-28
- Lakoff G. Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. Chicago, IL: University of Chicago Press. 1987. pp. 10-25.
- Rosch E. Principles of categorization. Cognition and categorization. Hillsdale, NJ: Erlbaum. 1978. pp. 27-48.
- Serebrennikov B.A., Kubryakova E.S., Postovalova V.I. (1988). Rol chelovecheskogo faktora v yazike: Yazik i kartina mira. Moskva, Rossiya: Nauka. 1988. pp. 50-55.
- Saussure, F. de. Course in general linguistics. La Salle, IL: Open Court. 2011, pp. 66-70.